O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI HOKIMINING QARORI

2022 - yil 15 - mart 175-10-0-Q/22 Toshkent viloyati hokimiligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Obod qishloq” va “Obod mahalla” davlat dasturlari ijrosini bajarish samaradorligini oshirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Obod qishloq” va“Obod mahalla” davlat dasturlari ijrosini samarali amalga oshirish, Davlat rahbari tomonidan hududlarda “Mahallabay” ishlash tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha ishlarni tashkil etish, respublikaning olis hududlarida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik va obodonlashtirish, muhandislik-kommunikatsiya va yo‘l-transport infratuzilmasi obyektlarini qurish tadbirlarini izchil davom ettirish hamda zarur kuch va vositalarni jalb etish va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 25-moddalariga asosan, **qaror qilaman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2022-yil 9-martdagi AF-12-son Farmoyishi ijro uchun qabul qilinsin.

2. Viloyat favqulodda vaziyatlar boshqarmasi X.Aliboev Mahsus muhandislik-qurilish boshqarmasining shahsiy tarkibi, shuningdek, avtomobil, maxsus va muhandislik texnikalari respublika bo‘ylab “Obod qishloq” va “Obod mahalla” davlat dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan ishlarga viloyat mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash boshqarmasining talabnomasiga asosan jalb etilishini ta’minlab borsin.

3. Shahar va tuman hokimliklari “Obod qishloq” va “Obod mahalla” davlat dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan ishlarga jalb etilgan viloyat favqulodda vaziyatlar boshqarmasining Mahsus muhandislik-qurilish boshqarmasining shahsiy tarkibiga kundalik xizmat faoliyatini olib borishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilsin, shuningdek, avtomobil, maxsus va muhandislik texnkalarini yoqilg‘i-moylash mahsulotlari bilan ta’minlab borsin.

4. Belgilansinki, viloyat favqulodda vaziyatlar boshqarmasining maxsus muhandislik-qurilish boshqarmasining balansidagi avtomobil, maxsus va muhandislik texnikalar belgilangan tartibda tegishli mahalliy budjetlar mablag‘lari hisobidan yoqilg‘i-moylash mahsulotlari bilan ta’minlanadi.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosari Sh.Mahmudov zimmasiga yuklansin.

Toshkent viloyati hokimi v.b. **Z.Mirzayev**